

Davlat statistika ishlarini ishlab chiqarish dasturiga muvofiq Davlat statistika qo`mitasi tomonidan 2017 yil uchun Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri bo`yicha yalpi hududiy mahsulotni (keyingi o`rinlarda – YaHM) dastlabki baholash ishlari amalga oshirildi.

YaHM – milliy hisoblar tizimining asosiy ko`rsatkichi bo`lib, muayyan vaqt davomida mintaqaning iqtisodiy hududida joylashgan rezident – institutsional birliklar ishlab chiqarish faoliyatining yakuniy natijasini ifodalaydi. YaHM ishlab chiqarish usulida, iqtisodiy faoliyat turlari bo`yicha yalpi qo`shilgan qiymat hajmi va mahsulotlarga sof soliqlar yig`indisi sifatida hisoblanadi.

2017 yil yakunlari bo`yicha **Qoraqalpog`iston Respublikasi** YaHM hajmi 8285,2 mlrd.so`mni tashkil etdi va 2016 yilga nisbatan 5,7 % ga o`sdi. YaHM ning o`sishi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi – 103,8 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 15,2 %), sanoat – 107,1 % (32,7 %), qurilish – 103,6 % (7,5 %), xizmatlar sohasi – 105,9 % (44,6 %) kabi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o`shish sur`atlari bilan bog`liq. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4527,7 ming so`mni tashkil etdi va 4,2 % ga o`sdi.

Andijon viloyati bo`yicha YaHM joriy narhlarda 14479,0 mlrd.so`mni tashkil etdi va 2016 yil bilan taqqoslaganda 6,7 % ga o`sdi. Iqtisodiy o`shish qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 101,1 % (YaHM tarkibidagi ulushi - 33,4 %), sanoatda - 123,5 % (20,8 %), qurilishda – 101,9 % (5,6 %), xizmatlar sohasida – 105,1 % (40,2 %) kuzatilgan ijobiy o`shish sur`atlari natijasida ta`minlandi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 4847,2 ming so`mni tashkil etdi va 2016 yilga nisbatan 4,9 % ga o`sdi.

Buxoro viloyatida YaHM hajmi 12283,9 mlrd.so`mni yoki 2016 yilga nisbatan 101,7 % ni tashkil etdi. YaHM hajmining o`sishi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 101,6 % (YaHM tarkibidagi ulushi - 31,0 %), qurilishda – 101,4 % (9,7 %), xizmatlar sohasidagi – 103,8 % (39,6 %) ijobiy o`shish sur`atlari bilan bog`liq. Sanoatda ishlab chiqarish hajmining 1,5 % ga kamayishi kuzatildi. Ushbu tarmoqning YaHMdagi ulushi 19,7 % ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga YaHM hajmi 0,2 % ga o`sdi va 6616,0 ming so`mni tashkil etdi.

Jizzax viloyatida YaHM 2016 yilga nisbatan 2,4 % ga o`sdi va 5762,2 mlrd.so`mni tashkil etdi. Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida ham ijobiy o`shish sur`atlari qayd etildi. Xususan, o`shish sur`atlari qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 101,1 % (YaHM tarkibidagi ulushi - 35,2 %), sanoatda - 100,4 %

(14,3 %), qurilishda – 100,1 % (8,1 %), xizmatlar sohasida – 104,6 % (42,4 %) ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga YaHM hajmi 4388,9 ming so`mni tashkil etdi va 2016 yilga nisbatan 0,5 % ga o`sdi.

Qashqadaryo viloyati yalpi hududiy mahsuloti 2016 yilga nisbatan 3,1 % ga o`sdi va 17366,1 mlrd.so`mni tashkil etdi. YaHM ning o`shishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o`shish sur`atlari bilan bog`liq. Jumladan: qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 100,8 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 22,6 %), sanoatda – 104,1 % (35,2 %), qurilishda – 100,4 % (7,6 %), xizmatlar sohasida – 104,0 % ni (34,6 %) tashkil qildi. Aholi jon boshiga YaHM 1,1 % ga o`sdi va 5568,8 ming so`mni tashkil etdi.

Navoiy viloyatida YaHM o`shishi 1,3 % ni tashkil etdi va 12317,4 mlrd.so`mga yetdi. YaHM tarmoq tarkibini 2016 yil bilan taqqoslaganda o`shish sur`ati qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 104,1 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 18,5 %), sanoatda – 98,6 % (53,9 %), qurilishda – 103,1 % (4,8 %), xizmatlar sohasida – 106,3 % ni (22,8 %) tashkil etdi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 0,3 % ga kamaydi va 12961,6 ming so`mni tashkil etdi.

Namangan viloyatida YaHM 10552,5 mlrd.so`mni tashkil etdi, bu esa 2016 yil ma`lumotlariga nisbatan 4,2 % ga ko`pdir. YaHM dagi o`shish sur`ati qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi – 101,1 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 30,9 %), sanoat – 105,0 % (14,9 %), qurilish – 107,6 % (6,8 %), xizmatlar sohasidagi – 105,4 % (47,4 %) ijobiy o`shish sur`atlari bilan bog`liq. Aholi jon boshiga YaHM 2,3 % ga o`sdi va 3943,8 ming so`mni tashkil etdi.

Samarqand viloyatida YaHM hajmi joriy narxlarda 18319,5 mlrd.so`mni tashkil etdi va 2016 yil bilan taqqoslaganda 2,5 % ga o`sdi. Ushbu hududda qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 101,4 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 32,2 %), sanoatda – 102,2 % (18,6 %), xizmatlar sohasida – 104,5 % (43,3 %) ijobiy o`shish sur`atlari qayd etildi. Qurilish tarmog`ida esa, bajarilgan ishlar hajmining kamayishi qayd etildi, ya`ni 2016 yilga nisbatan 95,6 % ni tashkil etdi (ushbu tarmoqning YaHM tarkibidagi ulushi – 5,9 %). Aholi jon boshiga YaHM 0,6 % ga o`sdi va 4970,4 ming so`mni tashkil etdi.

Surxondaryo viloyatida YaHM 3,7 % ga o`sdi va 10633,3 mlrd.so`mni tashkil etdi. YaHM ning o`shishiga ta`sir qiluvchi omillar bo`lib, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 106,6 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 40,3 %), qurilishda – 104,1 % (7,7 %), xizmatlar sohasidagi – 104,7 % (43,8 %) ijobiy o`shish sur`atlari xizmat qildi. Sanoat ishlab chiqarishining fizik xajm indeksi 2016 yilga nisbatan 90,0 % ni tashkil etdi (YaHM tarkibidagi ulushi – 8,2 %). Aholi jon boshiga YaHM 4274,3 ming so`mni tashkil etdi, bu esa 2016 yil ma`lumotlariga nisbatan 1,6 % ga ko`pdir.

Sirdaryo viloyati yalpi hududiy mahsuloti hisobot davrida 2,3 % ga kamaydi va 5066,4 mlrd.so`mni tashkil etdi. YaHM ning tarmoq tarkibida o`shish sur`atlari: qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 102,3 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 36,9 %), xizmatlar sohasida – 105,5 % (33,5 %) ni tashkil etdi. Shuningdek, 2016 yil bilan taqqoslaganda sanoatda – 84,6 % (24,7 %) va qurilishda – 95,1 % (4,9 %) hajmlarning kamayishi kuzatildi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 3,8 % ga kamaydi va 6259,5 ming so`mni tashkil etdi.

Toshkent viloyatida YaHM 23525,3 mlrd.so`mni tashkil etdi va 2016 yil bilan taqqoslaganda 3,1 % ga o`sdi. YaHM ning o`shishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o`shish sur`atlari bilan bog`liq. Jumladan: qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 100,8 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 23,1 %), sanoatda – 103,0 % (38,7 %), qurilishda – 100,5 % (3,7 %), xizmatlar sohasida – 103,8 % (34,5 %) o`shish sur`atlari kuzatildi. Aholi jon boshiga YaHM 1,8 % ga o`sdi va 8268,1 ming so`mni tashkil etdi.

Farg`ona viloyatida YaHM 4,0 % ga o`sdi va 16773,1 mlrd.so`mni tashkil etdi. YaHM ning o`shishi hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlaridagi ijobiy o`shish sur`atlari bilan bog`liq. O`shish sur`ati qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligida – 103,3 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 23,4 %), sanoatda – 102,0 % (24,6 %), qurilishda – 105,9 % (6,2 %), xizmatlar sohasida – 105,1 % (45,8 %) ni tashkil etdi. Aholi jon boshiga YaHM 4669,0 ming so`mni tashkil etdi va 2016 yilga nisbatan 2,4 % ga o`sdi.

Xorazm viloyatida YaHM 8232,9 mlrd.so`mni tashkil etdi, bu esa 2016 yilga nisbatan 4,5 % ko`pdir. YaHM ning o`shishi qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi – 100,1 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 30,4 %), sanoat – 113,2 % (17,3 %), qurilish – 100,0 % (7,2 %) va xizmatlar sohasidagi – 105,2 % (45,1 %) o`shish sur`atlari bilan bog`liq. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 2,8 % ga o`sdi va 4597,6 ming so`mni tashkil etdi.

Toshkent shahrida YaHM 38642,9 mlrd.so`mni tashkil etdi, bu esa 2016 yilga nisbatan 8,0 % yuqori. YaHM o`shishining asosiy omillari bo`lib, sanoat – 106,9 % (YaHM tarkibidagi ulushi – 32,2 %), qurilish – 110,9 % (7,4 %) va xizmatlar sohasidagi – 108,4 % (60,4 %) ijobiy o`shish sur`atlari hisoblanadi. Aholi jon boshiga hisoblangan YaHM 6,4 % ga o`sdi va 15805,5 ming so`mni tashkil etdi.

2017 yil uchun yalpi ichki (hududiy) mahsulot


	<i>YalM (YaHM), mlrd.so`m</i>	<i>Aholi jon boshiga YalM (YaHM), ming.so`m</i>
O`zbekiston Respublikasi ¹⁾	249 136,4	7 692,4
Qoraqalpog`iston Respublikasi	8 285,2	4 527,7
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	14 479,0	4 847,2
Buxoro	12 283,9	6 616,0
Jizzax	5 762,2	4 388,9
Qashqadaryo	17 366,1	5 568,8
Navoi	12 317,4	12 961,6
Namangan	10 552,5	3 943,8
Samarqand	18 319,5	4 970,4
Surxondaryo	10 633,3	4 274,3
Sirdaryo	5 066,4	6 259,5
Toshkent	23 525,3	8 268,1
Farg`ona	16 773,1	4 669,0
Xorazm	8 232,9	4 597,6
Toshkent sh.	38 642,9	15 805,5

¹⁾ *Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda*

Respublika bo'yicha YaIM ning shakllanishida Toshkent shahri 15,5 % ulush bilan eng katta hissa qo'shdi. Toshkent viloyati 9,4 % va Samarqand viloyati 7,4 % ko'rsatkich bilan keyingi o'rinlarni egallab turibdi. Respublika YaIM ni shakllantirishda eng kam ulush Sirdaryo (2,0 %), Jizzax (2,3 %), Xorazm (3,3 %) viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasiga (3,3 %) to'g'ri kelmoqda.

2017 yilda YaIM ni shakllantirishda hududlarning ishtiroki

(YaIM ga nisbatan % da)



2017 yil yakunlari bo'yicha Toshkent sh. (108,0 %), Andijon viloyati (106,7 %) va Qoraqalpog'iston Respublikasida (105,7 %) yuqori o'sish sur'atlari qayd etildi. Navoiy (101,3 %), Buxoro (101,7 %), Jizzax (102,4 %) va Samarqand (102,5 %) viloyatlarida Respublika darajasiga (105,3 %) nisbatan past o'sish sur'atlari kuzatildi. Sirdaryo viloyatida YaHM hajmining (2016 yilga nisbatan 97,7 % teng) kamayishi qayd etildi.

2017 yilda YaIM (YaHM) ning o'sish sur'atlari
(2016 yilga nisbatan % da)

	YaIM (YaHM)	YaIM (YaHM) aholi jon boshiga
O'zbekiston Respublikasi ¹⁾	105,3	103,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	105,7	104,2
<i>viloyatlar:</i>		
Andijon	106,7	104,9
Buxoro	101,7	100,2
Jizzax	102,4	100,5
Qashqadaryo	103,1	101,1
Navoi	101,3	99,7
Namangan	104,2	102,3
Samarqand	102,5	100,6
Surxondaryo	103,7	101,6
Sirdaryo	97,7	96,2
Toshkent	103,1	101,8
Farg'ona	104,0	102,4
Xorazm	104,5	102,8
Toshkent sh.	108,0	106,4


¹⁾ Hududlar bo'yicha taqsimlanmagan ma'lumotlarni qo'shgan holda

2017 yil yakunlariga ko`ra, qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligining YaHM tarkibidagi ulushi bo`yicha eng yuqori ko`rsatkich Surxondaryo viloyatida (40,3 %), sanoatning eng yuqori ulushi Navoiy viloyatida (53,9 %), xizmatlar sohasining eng yuqori ulushi esa, Toshkent shahrida (60,4 %) kuzatilmoqda.

Qishloq, o`rmon va baliq xo`jaligi hamda xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi bo`yicha eng kam ko`rsatkich Navoiy viloyatida (mos ravishda 18,5 % va 22,8 %), sanoatning eng kam ulushi Surxondaryo viloyatida (8,2 %) qayd etildi.

2017 yilda YaHM ning tarmoqlar bo`yicha tarkibi

(jamiga nisbatan % da)



■ Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi ■ Sanoat ■ Qurilish ■ Xizmatlar

Makroiqtisodiy indikatorlar va milliy hisoblar boshqarmasi

Nashr uchun mas`ul: A.Mamirov
Tel: 230-80-28